

## AFIKSLARNING SO'Z TURKUMLARIGA KO'RA GURUHLANISHI

Yusupova Sabohat A'zamjonovna

*FarDU katta o'qituvchisi*

Abdulaxatova Xurshidaxon

*FarDU ingliz tili lingvistika magistranti*

[abdulaxatovaxurshidaxon@gmail.com](mailto:abdulaxatovaxurshidaxon@gmail.com)

Bozorboyeva Xusnidaxon Bahromjon qizi

*FarDu talabasi*

[bozorboyevaxusnidaxon@gmail.com](mailto:bozorboyevaxusnidaxon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi so'z yasalihi va so'z yasalihi usullari haqida shuningdek grammatik va sintaktik qurilish va afiksalar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs oti, suffiks, prefiks, o'zak, sifatdash, fe'l kabilar.

Ingliz tilida ot, so'z yasalihi munosabatiga ko'ra eng boy so'z turkumi hisoblanadi. Turli so'z turkumiga oid asoslardan suffiksalar yordamida so'z yasalihi juda keng ko'lamda ko'rsatilgan. Ingliz tilidagi otlar boshqa so'z turkumlariga nisbatan ko'proq suffiks oladi.

Suffiksalar otlarning so'z turkumi sifatidagi belgilaridan biri bo'lib, ular yasama otlarning leksik - semantik ma'nosini toraytirib, ayni paytda otlar ma'lum semantik guruhga mansubligini ko'rsatadi (shaxs otlari, qurol - asbob otlari, mavhum va jamlovchi otlar va sh.k.).

Ingliz tilida ot yasovchi suffiksalar kelib chiqishi jihatidan turli xil. Faqatgina morfema sifatidagi suffiksalar va so'zlarni qo'shish jarayonida mustaqil so'zlardan yuzaga kelgan suffiksalar; sof inglizcha suffiksalar va o'zlashtirilgan suffiksalar. Ingliz tilining lug'at tarkibi unumli suffiksalar vositasida yasalgan yangi leksik birliklar bilan boyib borayotgan mahsuldor suffiksalar bilan bir qatorda unumsiz yoki kamunum suffiksalar ham mavjud. Bunday suffiksalar bir yoki ba'zi bir so'zlarda yoki otlarning xuddi bir morfologik belgisi sifatida uchraydi (qiyosl. nature (ot) so'zidagi -ture suffiksi kabi va hokazo)

Shaxs oti yasovchi suffiksalar bilan yasalgan otlar. -er suffiksi bilan yasalgan otlar.

Barcha shaxs oti yasovchi suffiksalar orasida -er eng mahsuldor qo'shimcha. Qadimgi ingliz tilida bu suffiks yordamida ot va fe'llardan, asosdan anglashilgan faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari yasalgan. Masalan, cartere (zam. carter) 'aravakash, yuk tashuvchi, kirakash', writere (zam. writer) 'kotib, ko'chirib yozuvchi, nusxa ko'chiruvchi'

Hozirgi davrda -er suffiksi katta mahsuldorlikka va keng ko'lamdagi qo'llanilishga ega bo'lib, uzida shaxs va qurol - asbob ma'nolarini saqlaydi. Ular -eri va -er2 suffiksalaridir.

Agar bu suffiks oldin faqatgina fe'l va ot o'zaklari bilan birika olgan bo'lsa, biroq hozirgi davrda garchi kam hollarda bo'lsada, sifat va son o'zaklaridan ham yangi otlar yasaydi.

Ot o'zaklariga birikib, -eri suffiksi o'zak ifodalagani ma'lum bir joy (shahar, qishloq, mamlakat, orol va hk.) da yashovchi ma'nosini bildiradi. Darhaqiqat, bunday hollarda yasama so'zlarning o'zaklari ma'lum bir joyni ifodalovchi otlar bo'lishi zarur. Masalan: villager 'qishloqda yashovchi, qishloqi\ hosteller 'yotoqxonada turuvchi talaba'.

Joyga qarashlilikni ifodalaydigan sifat o'zaklari bilan birikib, -eri suffiksi xuddi shunday ma'no anglatadi.

Masalan: Britisher 'britaniyalik'; northerner 'shimollik'; southerner 'janublik'.

-eri o'zakdan anglashilgan o'ziga xos sifat yoki belgi ma'nolarini ifodalashi mumkin. Shaxs mana shu belgi bilan nomlanadi. Bunday hollarda -en suffiksi rang, tus yoki xususiy belgi ma'nolarini bildiruvchi sifat o'zaklariga qo'shiladi.

Masalan: greener (jarg.) I (endigina) yangi kelgan odam, birinchi kurs talabasi'; fresher (jarg.) I birinchi kurs talabasi'.

Ba'zan -ers suffiksi yasama so'z o'zagi ko'rsatgan yoshda bo'lgan shaxsni ifodalaydi. Bu xildagi otlarning o'zaklari son so'z turkumiga oid so'z bo'ladi (ayniqsa ma'lum bir yosh doirasidagi shaxs ma'nosi). Masalan: fifteeners and sixteeners (ogz.) "o'n besh va o'n olti yoshli o'spirin, yigitcha'; forty - niner (ogz.) 'qirq to'qqiz yoshli odam'.

Yasama otlarning ko'pchiligini fe'l o'zagiga -eri suffiksi bilan yasalgan otlar tashkil qiladi, fe'llarga birikib bu qo'shimcha turli bo'yoqdorlikka ( polisemiyaga) ega bo'lgan shaxs ma'nosini ifodalaydi:

a) Yasama so'zning o'zagi ko'rsatgan narsa bilan doimiy shug'ullanuvchi shaxsni (ushbu shaxsning kasbiy faoliyati), masalan: sewer 'tikuvchi, mashinachi, etikdo'z, tikuvchi ayol'; singer 'ashulachi, hofiz'.

b) Ayni paytda ma'lum bir faoliyat turi bilan band bo'lgan kishini: singer 'kuylayotgan odam; (lekin ashulachi emas)'; speaker 'gapirayotgan odam; (ayni shu vaqtda)'; player 'o'ynayotgan odam' va b.

v) Harakatni ifodalovchi fe'llar. Bunda tub so'z bo'lgan (fe'l) ish, harakatni ifodalasa, yasama so'z shu faoliyatni ijro etuvchi shaxsni anglatadi. Masalan: to fly 'uchmoq, samolyotni boshqarmoq' (qiyosl. flier 'uchuvchi'); to climb 'yuqoriga chiqmoq, tirmashmoq, chirmashmoq' (qiyosl. climber 'alpinist'); to swim 'suzmoq' (qiyosl. swimmer 'suzuvchi').

Hissiy sezgi, zehn, idrok va his, tuyg'uni ifodalovchi fe'llar. Masalan: to watch 'qarab turmoq, kuzatib turmoq, tomosha qilmoq, hushyor, sergak turmoq' (qiyosl. watcher 'qo'riqchi, qorovul').

Qurol - asbob ma'noli -er2 suffiksi fe'l o'zagidan anglashilgan ishharakatni amalga oshiruvchi qurol, anjom, asbob - uskuna, instrument va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi. Masalan, to sow 'sepmoq, sochmoq, ekmoq' (qiyosl. sower 'seyalka'); to

scutch 'zig'irpoyani yanchib (titib), po'stini ajratmoq (tola olish uchun)'(qiyosl. scutcher 'Ўnotrepalka').

Fe'l o'zaklaridan -er2 suffiksi yordamida mehnat qurollari, moslama, asbob - uskuna va shu kabilarni ifodalovchi otlar yasaladi va bunday so'zlar odatda fan, texnika va qishloq xo'jaligining turli sohalariga tegishli o'ladi. Masalan: to compute 'hisoblamoq, hisoblab chiqarmoq, sanamoq' (qiyosl. computer 'hisoblash - yechish qurilmasi, hisoblash mashinasi'); to flat 'tekislamoq to'g'rilamoq, silliq, bir tekis, doim bir xil, bab - baravar qilmoq' (qiyosl. flatter 'rixtoval bolg'a, yassilaydigan (yupqalaydigan) bolg'a');

-er2 suffiksi yasama so'z o'zagi (son) ifodalagan birlik qiymati miqdoriga teng bo'lgan pul ma'nosini beruvchi otlar yasashda ham qo'llaniladi. Masalan: fiver (ogz.) 1 besh dollar; besh funt sterling; besh so'm, besh so'mli pul'; tenner (ogz.) 40 funt sterling qiymatli, 10 dollarli banknota\

-or suffiksi yordamida yasalgan so'zlar. O'rta ingliz tili davrida roman tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar, shu jumladan, -or suffiksiga tugallanuvchi otlar tilning lug'at tarkibiga paydo bo'ldi.

-or suffiksi fakat fan va texnika soxasiga mansub fe'l o'zaklaridan Qurol - asbob ma'nosidagi yangi otlar yasashi mumkin. Ko'pincha bu fizikaviy, kimyoviy, texnikaga oid va boshqa terminlardir. Masalan: insulator 'izolyator (elektr toki, issiqlik va sh.k.ni o'tkazmaydigan modda, material; maxsus chig'anoq, rolik va sh.k. (qiyosl. to insulate 'ayirmoq, ajratmoq, izolyatsiyalamoq, boshqalardan ajratib (yakkalab) qo'ymoq'); refrigerator 'xolodil'nik, sovutgich (sovutadigan, muzlatadigan agregat)' (qiyosl. to refrigerate 'muzlatgichga qo'ymoq'); lubricator 'moylovchi, yog'lovchi (ishchi)' (qiyosl. to lubricate 'mashina, avtomashina, avtomobil'ni yog'lamoq, moylamoq, yog' (moy, dori) surtmoq, yog'lab (moylab) qo'ymoq').

Agar -er va -or so'z yasovchi qo'shimchalarini taqqoslaydigan bo'lsak, -or suffiksi quyidagi farqli xususiyatlarga ega: Zamonaviy ingliz tilida -or suffiksi odatda roman tilidagi o'zaklarga birikadi va faqat qurol, asbob ma'nosini ifodalaydi.

-or suffiksi faqat ilmiy tilga daxldor bo'lgan fe'l o'zaklari bilan birika oladi va ilmiy, texnikaga oid terminlar yasaydi. Qoida bo'yicha, -er suffiksi bir bo'g'inli, kamdan-kam hollarda ikki bo'g'inli va yana ko'p bo'g'inli o'zaklar bilan birikadi, holbuki -or suffiksi odatda ikki bo'g'inli va ko'p bo'g'inli o'zaklarga qo'shiladi, lekin hozir deyarli bir bo'g'inli fe'l o'zaklari bilan bog'lanmaydi.

Ko'pincha -or suffiksi, tarkibida -ate qo'shimchasi bo'lgan fe'l o'zaklariga, yoki roman tilidagi sifatdosh ikki formasidan kelib chiqqan o'zaklarga birikadi (zamonaviy ingliz tilida bunday fe'llar odatda t tovushiga tugallanadi). Masalan: to collect - collector, to select - selector.

Ilmiy uslubga xos bo'lgan -or suffiksli yasama so'zlarga nisbatan -er suffiksli so'zlar og'zaki nutqda ko'proq ishlatiladi. g) Garchi shaxs ma'nosidagi -or suffiksli ko'pgina

otlarda fe'l o'zaklarini erkin ajratib va yuqorida zikr qilinganlarni semantik guruhlar (ko'proq yuridik va siyosiy terminlar)ga birlashtirib bo'lsada, bunday otlarning birortasi ham ingliz tili negizida yasalmagan. Ular barchasi roman tillaridan o'zlashtirilgan edi. -ee suffiksi yordamida yasalgan so'zlar

Dastlab -ee suffiksi ingliz tiliga yuridik va ma'muriy tadbirlar ob'ekti bo'lgan shaxsni ko'rsatadigan yuridik va administrativ terminlar tarkibida kirib keldi, masalan: donee 'sovg'ani oluvchi'; appellee 'ayblanuvchi, javobgar'; assignee 'vakil (harbiy. tayinlangan, belgilangan)'; presentee 'kandidat'.

Keyinchalik ingliz tili negizida bir qator yangi so'zlar yasaldi. -ee suffiksi nafaqat roman tillaridan kelib chiqqan o'zaklarga, balkim german tillaridan kelib chiqqan o'zaklarga ham birika boshladi. Masalan: drawee (fin.) 'trassat' to draw fe'lidan.

Ish - harakatning faol ijrochisi ma'nosini anglatuvchi -er va -or suffikslaridan farqli ravishda, -ee suffiksi shu faoliyat ob'ekti mazmunini ifodalaydi. Bu faoliyat ob'ekti vositasiz va vositali bo'lishi mumkin, bu - yangi so'z hosil qilingan fe'l o'zagi o'zidan keyin qanday to'ldiruvchi kelishini talab etishiga bog'liq. Masalan: employee 'yollanma ishchi; xizmatchi'; detainee 'maxbus, bandit; qamab qo'yilgan odam'

ee suffiksi ingliz tilida so'z yasovchi qo'shimcha sifatida keng qo'llanilmadi. Bu suffiks kamunumligining sababi, asosan bu qo'shimchaga bog'lana oladigan fe'l o'zaklari semantik guruhlarining son jihatdan kamligidir: bu - 'birovga biror narsani topshirmoq, qo'lga bermoq, ishonib topshirmoq' ma'nosidagi fe'llar (asosan yuridik va ma'muriyatga oid terminlar). Masalan: to devise 'mol-mulknini topshirmoq, bermoq, (ko'chmas mulk, amloqni)vasiyat qilib qoldirmoq' (qiyosl. devisee 'biror narsa berilgan yoki biror narsa uchun xuquq berilgan odam, merosxo'ri, vorisi (ko'chmas mulk)').

Shunday qilib, frantsuzcha sifatdosh ikki suffiksi ingliz tilida ishharakatning ob'ekti bo'lgan shaxs ma'nosidagi ot yasovchi suffiks sifatida moslashtirilgan.

#### ADABIYOTLAR:

1. Bektoshev Otabek Qodiraliyevich. Ingliz tili nazariy grammatikasi. O'quv qo'llanma. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. 1973. -616.
2. Bektoshev Otabek Qodiraliyevich. Ingliz tili nazariy grammatikasi. O'quv qo'llanma. 17-B.
3. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
4. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARNING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.

5. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).

6. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.

7. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.